

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Surxondaryo viloyati
Denov tumani 77-maktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Korayeva Gulnora

Annotatsiya: Mazkur maqolada Denov tumani 82- maktab boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish hamda, muammoli ta'larning afzalliliklari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, metodika, tafakkur, kreativlik, belgi, mashq, fikrlash, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik.



Kreativlik (лат. creatio – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

O'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorligi o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o'quv harakatlariga aylanadi. Natijada, o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o'sib o'tadi.



Mantiqiy topshiriqlar hamkorlikda bajarilgandagina bilimlarni o'zlashtirish mahsuldor bo'ladi. Ilmiy manbalarda ta'larning shunday tashkil etilishini hamkorlikdagi mahsuldor faoliyat vaziyati, deb atash qabul qilingan. Pedagogik adabiyotlar tahliliga ko'ra hamkorlikdagi mahsuldor o'quv faoliyatini tashkil qilishning 2 asosiy tamoyilini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir:

1.Ta’limda mazmunning izchilligi tamoyili. Unga ko’ra shaxs o’z faoliyatini muayyan maqsad asosida tashkil qilishida mazkur faoliyatning uzuksiz shakllanishi ko’zga tashlanadi.

2.O’qituvchi-o’quvchilar hamkorligining mustaqil ijodiy faoliyat bilan bog’liqligi tamoyili.

O’quv jarayonida o’quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O’quvchilarning ta’limga qay darajada ixlos qo’yishi o’qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog’liq. O’qituvchi bilan o’quvchilarning o’quv faoliyatidagi muhitning to’g’ri uyushtirilishi o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g’ayratini sarflashga undaydi. Bu o’zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o’quvchi o’zini pedagogik ta’lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O’qituvchining o’rganilayotgan fan bo’yicha qaysidir bir ma’lumotga aniqlik kiritish paytida o’quvchilarga yordam so’rayotganday murojaat qilishi hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi. O’quvchilarni o’rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o’qish o’qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishninggina sharti bo’lib qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir.

O’quvchi o’qitish va tarbiyalash jarayonining o’zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi. Sh.A.Amonashvili ta’lim jarayonida o’quvchi bilan hamkorlik munosabatini o’rnatish lozimligini ta’kidlab, shunday deydi: «O’quvchining o’quv- biluv faoliyati nafaqat qiziqarli o’quv materiali va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta’lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko’ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo’lgan muhitda o’quvchi o’quv topshiriqlarini oson o’zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko’rgan o’quvchi yanada murakkab bo’lgan o’quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi».

O’qitishda muammoli ta’limdan foydalanish ham, kreativ qobiliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O’quvchilarning biror -bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog’liq bo’lgan ta’lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o’quvchilarni ijodiy fikr “laboratoriysi”ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir.

Muammoli ta’lim shu jihatdan bir qancha afzallikkarga ega:

1. U o’quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o’rgatadi.
2. U o’quv materialini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e’tiqodga aylanishiga ko’maklashadi.
3. U odatda, ancha ta’sirchan bo’lib, chuqur intellektual his-tuyg’ular, shu jumladan ko’tarinki ruh, hissini o’z imkoniyatlari va kuchiga ishonch tuyg’usini vujudga keltiradi, shuning uchun u o’quvchilarni qiziqtiradi, o’quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi.
4. Haqiqat qonuniyatining mustaqil “kashf etilishi” olingan bilimlarni unutmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tezda qayta tiklash mumkin.

Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o'rinni tutadi. O'quvchi o'zi uchun qulay sharoitda hayotiy va o'quv tajribasiga tayanib og'zaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda har bir fanning o'zi uchun noma'lum qirralari xususida o'qituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo bo'ladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi. O'qituvchi bunday hamkorlik jarayonida o'quvchilarning kreativligini o'stirish bilan birga diagnostik vazifani ham bajaradi, ya'ni o'quvchilarning qobiliyati, qiziqish doirasini aniqlaydi, kreativ iqtidorini chandalaydi. Kreativlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu g'oyat muhimdir.

Boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda.

O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi.

«Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ularni takomillashtirish zarur. Ya'ni o'qituvchilar ma'suliyatli va e'tiborli bo'lish zarur. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ qobiliyatları rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Xato qilishdan, muvaffaqiyatsiliklardan cho'chish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo'rqish hissi mavjud o'quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muqimjanovna, Mohira Muydinova, и Karimjonova Gulshanoy Sherali qizi. 2023.
«JAMIYATDA BO'LAYOTGAN O'ZGARISHLARNING OILAGA TASIRI». Новости образования:
исследования в XXI веке 1 (6):1068-72.
<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3826>.
2. “Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :– Toshkent 2015
3. Davletshin M.G. Do'stmuhamedova Sh, Mavlanov M, To'ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O'quv metodik qo'llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil.
4. Innovatsion ta'lif texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua – Toshkent. 2016
5. www.arxiv.uz